

JADIDLAR MATBUOTI

*Rajabova Hulkar A'zamovna**O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'rifatparvar jadidchilarning milliy matbuotimizning shakllanishidagi faoliyatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Jadid, ma'rifatparvar, gazeta, Turkiston, Nashrlar.

O'zbek matbuoti tarixi jadidchilik harakati va jadid ziyyolilari bilan bog'lanadi. Jadidlar zamonida matbuotdagi haq so'zning kundalik hayotda, odamlarga jamiyatga ta'siri kuchli bo'ladi. Gazetalar avval oyda bir marta chiqsa, asta- asta haftalik va kunlik nashrlar shiddat bilan odamlar orasiga kirib bordi.

**Jadidlar**

Turkistonlik jadidchilar o'z gazetalarini chiqargunga qadar Qrimga, Bog'chasaroyga ko'z tikishdi. Ismoilbek Gaspirinskiyning "Tarjimon"(1883-1914) gazetasini o'qib, uning muxlisiga aylanishdi.

20 - asrning o'ninchi yillaridan boshlab Mahmudxo'ja Behbudiy "Samarqand, Oxund mulla Mavdud Ohimov (Toshkand) , Mirhusayn Mirrahimov (Qo'qon) Abduqodiriy Shakuriy (Samarqand), Hoji Muin (Samarqand) kabilar qatnashadi.

Mualliflar maqola xabar yozishsa, ayrim hollarda eng muhim savollarga javob topish maqsadida maktublar yo'llaydi.. Turkiston ziyolilari "Tarjimon" dan juda mamnun bo'ladilar. Turkistonlik jadidchilar " Tarjimon" dan bir necha yil saboq oldi. 1906 yil 27iyunda Ismoil Obidov muharrirligida birinch o'zbek gazetasi " Taraqqiy" nashrdan chiqdi. Turkistondagi bu yangilikni birinchi bo'lib "Tarjimon" tabrikladi.

Shundan keyin Munavvarqorining "Hurshid" (1906 yil sentyabr), Abdulla Avloniyning (Shuhrat 1907 yil dekabr) gazetalari nashr etildi. Biroq bu gazetalar faoliyati uzoqqa cho'zilmadi. Jadidlar gazetasi faoliyatidan to'xtamadi. "TUJJOR", "OSIYO", "SAMARQAND", "SADOI Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "Tirik so'z yonida Behbudiyning "Oyna" jurnali paydo bo'ldi. 1913-1915 yillarda 68 soni bosildi. 1917 yil Fevral o'zgatishi va Oktyabr inqilobidan so'ng "Najot", "Turon", "Kengash", "Ulug' Turkiston", "Yurt", "Hurriyat" kabi nashrlar maydonga keldi . XX - asr 20 - yillari oxiriga borib matbuotda cho'lponizm bahslari boshlandi. Shoир haqida " Qizil O'zbekistonda "Aqli jinni" degan maqola bosildi. " Yig'indi gaplar" hangomasi uchun Julqunboy 1926 yil 3 oy qamoqqa o'tirdi. U "Mushtum" jurnalining birinchi sonida "Bu Mushtum" zo'rliq mushtumi emas haqliq mushtumidir; bu "Mushtum" zolimlar mushtumi emas, mazlumlar mushtumidir" deb yozdi.

Abdulla Avloniyning 1924 yil 24 iyundagi "Turkiston" Gazetasiga yozgan maqolasiga ko'ra gazeta muharriri Ismoil Obidiyga Taraqqiy nomi berildi. U 1880 yilda tug'ilgan bo'lib hayoti davomida Sharqiy Turkiston, Qozon, Moskva, Toshkent shaharlarida yadhagan Tatar, o'zbek, arab, fors , uyg'ur, rus tillarini yaxchi bilgan. Obidiy ham jurnalist, me'mor, rassom, tarjimon bo'lgan. Jadidchi matbuotchilar orasida Fitrat, Cho'lpon, Ubaydullo Asadulloxo'jayev, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Hamza Hoji Muin kabilar matbuot va teatrni ham rivojlanishiga katta hissa qo'shadilar, o'zbek milliy matbuotini, teatrini tashkil etishda munosib o'rinnari bor. Biz ular bilan faxrlanamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bahodir Karimning "Jadid ruhida tug'ilgan o'zbek nashrlari. Milliy matbuotning ilk yillari haqida" nomli maqolasi.
2. <https://kun.uz/uz/92841758>
3. www.xs.uz